**“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining 7-son qarori**

2021-yil 24-noyabr

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

**KUN TARTIBI:**

1. “O‘zkimyosanoat” AJning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
2. “O‘zkimyosanoat” AJning korrupsiyaga qarshi siyosatini tasdiqlash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **qaror qabul qilindi:**

1. “O‘zkimyosanoat” AJning yangi tashkiliy tuzilmasi ushbu qarorning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zkimyosanoat” AJning korrupsiyaga qarshi siyisati ushbu qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

3. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisi (Mirzamahmudov):

- yangi tasdiqlangan tashkiliy tuzilma asosida jamiyatning ichki hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsin;

- “O‘zkimyosanoat” AJ tizimida yashirin itstisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar o‘z vaqtida amalga oshirilishini hamda jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosatiga kat’iy amal qilinishini ta’minlasin.

*Qaror rasmiylashtirilgan sana: 24.11.2021-yil*